

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 172 (1771), 2026-yil 24-avgust, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: ABADIY DO‘STLARNING STRATEGIK SHERIKLIGI VA ITTIFOQCHILIGI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 23-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Ozarbayjon Prezidentini “Toshkent — Humo” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi. Faxriy qorovul saf tortdi.

Geografik jihatdan ikki mintaqa — Markaziy Osiyo yuragidagi O‘zbekiston hamda Janubiy Kavkazda joylashgan Ozarbayjonni Ustyurt kengliklari bilan Kaspiy dengizi ajratib turadi. Biroq bu jihat o‘zbek va ozar xalqlarini tarixan bir-biridan ayro, uzoqda sezishiga sabab bo‘la olmagan. Ayniqsa, keyingi yillarda bu dengiz davlatlarimiz o‘rtasida simsiz to‘siq emas, balki o‘zaro manfaatli loyihalarni ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga aylanmoqda.

Davlatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi bunday yaqinlikning ikki asosiy sababi bor.

Birinchidan, xalqlarimizning tili, dini bir, tarixi, madaniyati, urf-odatlari o‘xshash, maqsadlari mushtarak. Asrlar davomida shakllangan qardoshlik rishtalari, ma‘naviy yaqinlik, samimiy do‘stlik va o‘zaro hurmat ikki xalqni bir-biriga yanada yaqinlashtirib kelmoqda.

Ikkinchidan, yangi O‘zbekistonning yangilangan tashqi siyosati, jumladan, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish, ayniqsa, qo‘shni va qardosh davlatlar bilan strategik ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi sa‘y-harakatlari evaziga Ozarbayjon bilan

munosabatlar tom ma‘noda mislsiz rivojlanib, eng yuksak pog‘ona — ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi. So‘nggi besh yilda 15 marotaba oliy darajadagi o‘zaro tashriflar amalga oshirilgani yoki ushbu samarali muloqotlar natijasida o‘zaro savdo hajmi barqaror o‘sayotgani, jumladan, 2025-yilda bu boradagi ko‘rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 3 barobardan ziyod ko‘paygani ham fikrimizning amaliy tasdig‘idir.

Ozarbayjon Prezidentining O‘zbekistonga bu galgi davlat tashrifi mamlakatlarimiz o‘rtasida barqaror rivojlanib borayotgan hamkorlik aloqalarini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga zamin yaratishi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega tarixiy voqeadir.

Oliy martabali mehmon rafiqasi hamrohligida mamlakatimizga tashrifini “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘yishdan boshladi. Shundan so‘ng mehmonlar poytaxtimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi sharafiga barpo etilgan Haydar Aliyev yodgorligi majmuasida bo‘lib, yodgorlik poyiga gulchambar qo‘ydi.

Ko‘ksaroy qarog‘ohida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevni tantanali kutib olish marosimi bo‘ldi. Ozarbayjon Prezidenti sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib olib, shohsupaga taklif qildi. Davlatlarimiz madhiyalari yangradi.

Shundan so‘ng Prezidentlar tor doirada uchrashuv hamda Oliy davlatlararo kengashning uchinchi yig‘ilishini o‘tkazdilar. Muzokarlarda O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ikki tomonlama hamkorlikni yangi mazmun bilan boyitish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Prezidentining bu galgi davlat tashrifi tarixiy voqea ekanini alohida qayd etib, “Sammit yakunida Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomaning imzolinishi buning tasdig‘i bo‘ladi. Eng muhimi, strategik sheriklik va ittifoqchilgimizning har bir bandi aniq natijalar va amaliy harakatlarda o‘z ifodasini topadi”, dedi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar jadal rivojlanmoqda. Parlamentlar, hukumatlar va tarmoqlar o‘rtasida muntazam muloqot yo‘lga qo‘yilgan. Tashrifga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlari va Hududlar forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bu esa davlatlararo kelishuvlarni hududlar va ishblarmon doiralari darajasidagi aniq loyihalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik ko‘rsatkichlari ham munosabatlarning yangi bosqichini yaqqol namoyon etmoqda. So‘nggi besh yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 3 barobar ortdi. Energetika, kimyo, konchilik, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmogda.

Tomonlar tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjudligini qayd etib, aniq chora-tadbirlarni qamrab olgan dastur qabul qilinayotganini ta’kidladi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish va O‘rta yo‘lakni birgalikda rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Hamkorlikning gumanitar yo‘nalishlariga ham alohida e’tibor qaratildi. Davlat rahbarlari madaniyat, ta’lim, yoshlar siyosati va sport sohalaridagi faol almashinuvlarni davom ettirishga kelishib oldi. “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy o‘rtasidagi adabiy ko‘priki” mavzusida o‘shma kinofilmlar yaratish taklifi ilgari surildi.

Ta’lim sohasidagi muloqotni yanada kengaytirish maqsadida joriy yil kuzida Ozarbayjonda yetakchi oliy ta’lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi bo‘lib o‘tishi belgilandi. Yoshlar va sport sohasida esa 2027-yilda mamlakatlarimizda futbol bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionati

o‘tkazilishi munosabati bilan qo‘shma sport, madaniyat va yoshlarga oid tadbirlarni nazarda tutuvchi keng ko‘lamli “Ikki mamlakat — bir chempionat” dasturi ishlab chiqiladi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Yig‘ilishda Hukumatlararo komissiya hamraislarining axboroti tinglanib, erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtda va sifatli amalga oshirishga qaratilgan “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga qaror qilindi.

Oliy davlatlararo kengashning uchinchi yig‘ilishidan keyin Prezidentlar qo‘shma loyihalarga start berish marosimida ishtirok etdi.

Marosim doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab olgan qator qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirishga start berildi. Bank sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish, ta’lim muassasalarini tashkil etish, avtomobillarga yonilg‘i quyish infratuzilmasini barpo etish, yirik turizm va turar joy majmualarini qurish, mineral xomashyoni qayta ishlash hamda bog‘dorchilikni rivojlantirishni nazarda tutuvchi loyihalar shular jumlasidan.

Tadbiming e’tibori jihatlaridan biri — ishtirokchilarning hududlardagi loyiha maydonlaridan onlayn aloqaga chiqib, qilinayotgan ishlar haqida axborot bergani bo‘ldi.

Bu esa ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining aniq iqtisodiy mazmunbilant o‘ldirilayotganini ko‘rsatadi. Bank sohasidan sanoatgacha, ta’limdan turizmga, qurilishdan qishloq xo‘jaligigacha bo‘lgan yo‘nalishlarda ilgari surilayotgan tashabbuslar O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish, ishblarmon doiralari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va yangi ish o‘rinlari ochishga qaratilgan.

O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlarini ikki mamlakatning oliy davlat mukofotlari bilan taqdirlash marosimi tashrif kun tartibidan o‘rin olgan muhim voqealardan biri bo‘ldi. Zero, ushbu marosim ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik, o‘zaro hurmat va strategik sheriklik munosabatlarining yuksak darajasini yana bir bor namoyon etdi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevga O‘zbekiston Respublikasining oliy davlat mukofoti — “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni topshirildi. Mukofotni topshirish chog‘ida davlatimiz rahbari ushbu qaror Ozarbayjon Prezidentining qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashdagi xizmatlariga nisbatan O‘zbekiston xalqining samimiy hurmati va e’tirofining ifodasi ekanini ta’kidladi.

► Davomi 2-betda

MUNTAZAM TADRIJIY TAKOMIL, RIVOJ-U RAVNAQ YO‘LI

Ulug‘ bobomiz, so‘z saltanatining sultoni Alisher Navoiyning bunday bayti bor: “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin”. Bu bayt yaratiqni hayvonot olamidani tamoman ayirib, insonlik maqomiga olib chiqqan sharofatli gavhar til ekani haqidagi haqiqatning rost va raso ifodasidir. Yer yuzidagi 7000 ga yaqin tilning har biri millatning tamalini tayin etadigan, tafakkur va taxayyul tarzini tamomila o‘ziga xos yo‘sindan begona qilmaydigan, tabiiy va inja tuyg‘ularini salomat saqlaydigan, yugurik asrlardan asrlarga to‘zg‘itmay olib o‘tadigan betakror qudratdir.

O‘tgan asr boshida millat farzandlarining ma‘naviy-ma‘rifiy kamoloti yo‘lida zahmat chekmoqni umrining mazmuni deb bilgan atqli ma‘rifatparvar Abdulla Avloniyning Sharqdagi ming yillik milliy an‘analarni davom ettirib yozgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadigan o‘yinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak

— millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zlari mazkur fikrlarni dangan va har jihatdan tasdiqlaydi. Zotan, til millatning mavjudligi va barhayotligi, ichki va tashqi dunyosi asrorlarining, botiniy va zohiriy olami sinoatlarining, umuman, kechasi, buguni va kelajagining mo‘tabar shahodati, xira tortmas “oyinai hayoti”dir.

► Davomi 2-betda



TIZIMLI ISLOHOTLAR — UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

XXI asr — globallashuv va yuqori texnologiyalar asri. Bugun davlatlarning qudrati va raqobatbardoshligi tabiiy boyliklari yoki harbiy salohiyati bilan emas, balki birinchi navbatda, inson kapitali, ta’limning rivojlanganlik darajasi bilan baholanmoqda. Xomashyoga asoslangan iqtisodiyotdan bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish jahon trendiga aylandi.

Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda boshlangan tub burilishlar va islohotlar jarayonida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. Mamlakatimiz rahbari ilgari surgan Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish g‘oyasi markazida ham aynan ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, o‘qitish sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish va mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadi turibdi.

Mustaqillikning dastlabki chorak asrida O‘zbekistondagi ta’lim jarayoni murakkab, ko‘p hollarda konservativ va mehnat bozori talablaridan uzilib qolgan tizimga aylanib qolgan edi. Maktablarda yodlashga asoslangan tizim ustuvor bo‘lib, u o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirmasdi. Oliy ta’limga qamrov darajasi esa atigi 9-10 foiz atrofida bo‘lib, bu yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qilardi.

► Davomi 3-betda



2026-yil 24-avgust, 172-son

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi Obodon mahallasida Mash'al momo singari o'nlab kayyonilar yashaydi. Mahallaga kirishingiz bilan ko'zga tashlanadigan ozodalik, saranjomlik va ahillik kishida o'zgacha taassurot qoldiradi. Ayniqsa, Namuna ko'chasi o'z nomiga munosib tarzda e'tiborga tushgan. Ko'cha bo'ylab tizilgan va oqlangan manzarali daraxtlar, rang-barang anvoyi gullar, supurilgan yo'laklaru ozoda xonadonlar bu yerda har bir inson o'z ko'chasini o'z uyidek asrab-avaylashini yaqqol ko'rsatib turibdi.

— Namunada hech kimga “tozalik qiling”, deb uqtirishning zarurati yo'q. Chunki har bir xonadon egasi o'z ko'chasining haqiqiy sobibi ekanini yaxshi anglaydi. Bir xonadonda boshlangan yaxshi odat asta-sekin qo'shnilarga ham o'tgan. Mana shu tarzda g'ahillik va birdamlik butun ko'chani o'zgartirgan, — deydi mahalla faoli Nasiba Bobomurodova.

Obodon mahallasida yashovchi Saodat Mamadiyevaning hovlisiga qadam qo'ygan kishi o'zini gulzor yoki kichik botanika bog'ida yurgandek his qiladi. Chunki bu joyda 200 ga yaqin turdagi 1200 tupdan ziyod gul mehr bilan parvarishlanmoqda. Rayhonning yoqimli ifori, rang-barang va turli mavsumiy gullar xonadonga alohida fayz bag'ishlab turibdi.

Saodat Mamadiyevaning aytishicha, gul parvarishlash oddiy mashg'ulot emas, balki odatiy hayot tarzi. Har bir gulga mehr bilan qaralsa, u ham insonga o'z go'zalligi va tarovati bilan javob qaytaradi. Shu bois, har tong hovlini supurish, gullarga suv quyish va ularni parvarishlash kundalik odatga aylangan.

— Hovli ozoda bo'lsa, insonning kayfiyati ham ko'tarinki bo'ladi. Gul bor xonadonda baraka ham, mehr ham ko'payadi, — deydi xonadon bekasi. — Biz uchun bu gullar nafaqat baraka, balki u orqali qo'shimcha daromad ham topimiz.

Mahalla yoshlaridan biri Asliddin Eshonqulov xonadonidagi 2,5 sotixdan unumli foydalanib, zamonaviy issiqxona tashkil etgan. Issiqxonada limon va mandarin ko'chatlari parvarishlanib, yil davomida bozorgir mahsulotlar yetishtirilmoqda. Hozir Obodon mahallasida Asliddin Eshonqulov kabi tomorqasini fayz va baraka maskaniga aylantirayotganlar safi kengayib bormoqda. Bu jarayonda “mahalla yetitilgi”ning ham munosib hisssasi bor.

Ular aholi bilan xonadonbay ishlab, har bir tomorqaning imkoniyatini o'rganadi, mutaxassislarni jalb etadi. “Yetitilgi” ko'magida imtiyozli kreditlar, issiqxona tashkil etish, ko'chat va agrotexnik xizmatlardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatilmoqda. Natijada avval bo'sh turgan yerlar bugun daromad keltirayotgan tomorqalarga aylanib, mahallada tadbirkorlik muhiti va aholi bandligi tobora oshib bormoqda.

Obod mahalla degani shunchaki tozalangan ko'chalar emas. Bu xavfsiz muhit, barakali tomorqa, ahil qo'shinchilik va eng muhim, insonning munosib hayot tarzi degani. Bugun bu vazifalarning amaliy ifodasini Jarqo'rg'on tumani misolida ham ko'rish mumkin. Tumandagi 66 ta mahalla va 695 ta ko'chada

obodlik va mehr-saxovat oyligi doirasida keng ko'lamli ishlar davom etmoqda. Har qanday obodlik, avvalo, ko'zga tashlanadigan o'zgarishlardan boshlanadi. Surxon sohili, Qorabura, Kunchiqish mahallalari buning yaqqol namunasi. Shu kunlarda mahalladagi ko'p qavatli uylar atrofida obodonlashtirish ishlari tizimli tashkil etilgan. Hovlilar tartibga keltirilmoqda, bolalar maydonchalar va dam olish maskanlari yangilanmoqda. Bu yerdagi har bir o'zgarish odamlar uchun



yanada qulay yashash muhitini yaratishga xizmat qilaypti.

Tumandagi Kunchiqish mahallasida tomorqa oilalar uchun barqaror daromad manbaiga aylangan. Ayniqsa, issiqxona xo'jaligini yo'lga qo'ygan xonadonlar yilning to'r't faslida turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ko'chatlar yetishtirib, mahalliy bozorlarga yetkazib bermoqda. Umid Hasanov oilasi ana shunday fayzli xonadonlardan. Uy egasi ko'p yillik tajribaga ega usta dehqon sifatida zamonaviy issiqxona tashkil etgan. Hozir u asosan ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanadi. Muhimi, mehnat oilaning barcha a'zosiini birlashtirgan. Issiqxonada ko'chat ekish, parvarishlash, saralash va sotuvga tayyorlash ishlari hamma birdek hissa qo'shadi. Bunday qarash va mehnat esa butun mahallaga ahillik baxsh etmoqda.

— Issiqxonasi bor mahalladoshlarimizni sifati ko'chatlar bilan ta'minlaymiz. Ekinlarni parvarish qilib, hosildorlikni oshirish bo'yicha tajriba almashib, maslahatlar beramiz, — deydi Umid Hasanov mahalla ahli farovonligiga qo'shayotgan hissasidan zavqlanib.

Ishli kishi yumushini haqida o'ylaydi. O'rtiqcha gap-so'zga ko'p ham e'tibor bermaydi. Shu bois, mahalladoshlar bir bo'lgan joyda ekin, ish haqida g'urung qiziydi. Bu ham o'ziga yarasha ijobiy muhit yaratgan. Ana shunday ajib muhitdagi subhatlar o'z-o'zidan yangilanishlar, o'zgarishlar haqidagi gaplarga ulanib ketadi. Gurunglarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'rsatilayotgan yordam ham bosh mavzuga aylanadi. Ana shunday o'zgarishlar viloyatning boshqa tumanlarida ham amalga oshirilmoqda.

— Jarqo'rg'on tumanidagi bir nechta mahalla temir yo'l atrofida joylashgan. O'sha hududda qarovsiz joylar ham bor edi.

Endi mazkur masala tanqidiy tahlil qilinib, katta hajmdagi ishlar boshlandi. Hudud chiqindilardan tozalanmoqda, sanitariya holati yaxshilanmoqda, yashil hududlar barpo etilyapti. Muhimi, muammo tan olindi va uni bartaraf etish bo'yicha aniq ishlar boshlandi, — deydi Soqchi mahallasi xodimi Fazilat Abraqulova.

Endi mahalla raisi hududdagi islohotlarning bosh tashabbuskori va muvofiqlashtiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. “Yetitilgi” esa yagona jamoa bo'lib, aholi muammolarini barvaqt aniqlash, ularga amaliy yechim topish va har bir xonadon farovonligini ta'minlash yo'lida hamjihatlikda ishlaydi.

Bunday yangicha yondashuv natijalari joylarda ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Mahallalarda aholi bandligini ta'minlashga erishilyapti, ijtimoiy muammolar o'z vaqtida hal etilib, odamlarning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanmoqda. Xo'sh, bu islohotlar Sherobod tumanidagi Hakimobod mahallasi aholisi hayotida qanday o'zgarishlar yasadi? “Mahalla yetitilgi”ning hamjihatligi aholi turmushida qanday natijalar bermoqda?

— Bir necha yil avval bu yerdagi tuproq yo'ldan yurish azob edi. Bugun esa mahallamizga kirishingiz bilan kechayotgan o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Yo'llar asfaltlangan, ta'lim muassasalari zamonaviy qiyofa kasb etmoqda: yangi bog'chalar, obod va fayzli uylar. Bularning barchasi bir haqiqatni anglatadi: islohotlar bugun odamlar turmushida o'z aksini topyapti, — deydi mehnat faxriysi Himmatali Otamurodov.

Prezidentimiz belgilab bergan ustuvor vazifalardan biri har mahallada iqtisodiy faollikni kuchaytirish, aholi bandligi va

daromadini oshirishdir. Shu maqsadda joylarda mikroloiyahalar yo'lga qo'yilmoqda. Imtiyozli kreditlar ajratilib, tadbirkorlik tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Muhimi, bu sa'y-harakatlar odamlarni mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga undamoqda. Hakimobod mahallasida yashovchi 76 yoshli Himmatali otaning hayot yo'li buning yaqqol isbotidir. Inson mehnat va mehr bilan qaras, hatto ikki sotix yer ham baraka manbaiga aylanadi.

Himmatali Otamurodovning ikki sotixli tomorqasida limon, mandarin, banan, uzum, anor kabi serdaromad ekinlar parvarishlanmoqda. Hokim yordamchisining tavsiyasi asosida imtiyozli kredit olgan Himmatali bobo tomorqasidan daromad olishni zamonaviy agrotexnologiyalar asosida yo'lga qo'ydi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, mehnatining samarasi ko'rina boshladi. Bugun ana shu kichik maydondan yiliga qariyb 30 million so'm daromad olmoqda.

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etib, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ham “mahalla yetitilgi” faoliyatining muhim yo'nalishlaridan. Jumladan, 19 yoshli Nilufar Xo'jaqulova ham ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanayotir. U yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida imtiyozli kredit olgan. Hozir o'z xonadonida o'n bosh qoramol boqyapti. Kechagina ish izlab yurgan Nilufar qoramol boshqalarni ham ishli qilish maqsadida olg'a intilmoqda. Shuning o'ziyoq yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar va ulardan samarali foydalanish qanday natijalarga olib kelayotganining amaliy ifodasidir.

Mahallada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish yangi ish o'rinlari ochish

hamda iqtisodiy faollikni oshirishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Masalan, yosh tadbirkor Durbek Rahmonov mahalla guzarida zamonaviy xizmat ko'rsatish shoxobchalari va sartaroshxona tashkil qildi. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun unga qariyb 300 million so'm imtiyozli kredit berilgan. Hozir yosh tadbirkorning o'zi bilan birga yana bir necha kishi doimiy ish bilan ta'minlangan. Muhimi, bu loyiha ortida nafaqat bir tadbirkorning muvaffaqiyati, balki bir nechta oilaning daromadi va mahalla rivojiga qo'shayotgan munosib hissa mujassam.

Sherobod tumanining G'ambur mahallasi ham yaqin-yaqingacha qator muammolar bor edi. Infratuzilmadagi kamchiliklar, aholi bandligi va daromad manbalarini kengaytirish bilan bog'liq masalalar alohida e'tibor talab qilardi. Bugun esa bu yerda manzara butunlay o'zgaragan. Mahallaga kirishingiz bilan yangilanishlar, obodlik va harakatni his qilasis. — G'ambur mahallasida ham ish, avvalo, xonadonlarni o'rganishdan boshlandi. Har bir oilaning imkoniyati, ehtiyoji va maqsadi alohida tahlil qilindi. Tomorqalar qanday ahvolda, kimda tadbirkorlikka qiziqish bor, kimga moliyaviy ko'mak kerak, qaysi mahsulotga bozor topish zarur degan bir qancha savollarga javob topib, amaliy yordam ko'rsatildi. Natijada mahallada nafaqat yangi daromad manbalari paydo bo'lmoqda, balki odamlarning o'z imkoniyatiga ishonchi ham ortmoqda, — deydi mahalla raisi Sabohat Jo'rayeva.

G'ambur mahallasidagi yana bir e'tiborli jihat xotin-qizlarning tadbirkorlikka jalb etilayotganidir. Avval uy yumushlari bilan cheklangan ayollar bugun o'z tomorqasini daromad manbaiga aylantirmoqda. Mahalladagi

ana shunday tashabbuskor ayollardan biri o'z xonadonida bulg'or qalampiri yetishtirishni yo'lga qo'ygan. Zamonaviy agrotexnologiyalar asosida yetishtirilayotgan mahsulot mahalliy bozor bilan birga boshqa hududlarga ham yetkazib berilmoqda. Bu bir tomondan oila daromadini oshirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Albatta, bunday natijalar o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Ularning zamirida mahalla bankiri, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va mahalla raisining hamjihatlikdagi mehnati mujassam. Hududda har bir tashabbus loyihaga aylantirilyapti. Har bir loyiha esa moliyaviy manba bilan ta'minlanyapti. Muhimi, kredit endi shunchaki mablag' emas, balki yangi ish o'rinlari, daromad va imkoniyatlarning boshlanishi sifatida qabul qilinaypti.

Hakimobodda ikki sotix tomorqasidan baraka topayotgan mehnatkash otaxon, yoshlar yetakchisi ko'magida chorvachilikni yo'lga qo'ygan Nilufar, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z biznesini boshlagan Durbek, G'ambur mahallasida tomorqa va issiqxona orqali daromad manbai yaratgan tashabbuskor insonlar — bularning barchasi hududdagi manzilli ishlash tizimining amaliy natijasidir. Mustaqillikimizning 35 yillik bayrami arafasida o'tkazilgan yig'ilishda mahallani aholi uchun ishonch, tayanch va imkoniyatlar markaziga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Termiz shahrining Bog'ishamol mahallasi hududida joylashgan “Farovon” massivdagi bunyodkorlik ishlari ana shu ezigu maqsadning amaliy ifodasi deyish mumkin. Bu yerda aholi uchun munosib va xavfsiz yashash muhitini yaratish, muhandislik-infratuzilmasini takomillashtirish hamda hududning me'moriy qiyofasini yanada yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli obodonlashtirish va ta'mirlash ishlari bajarilyapti. Loyiha doirasida 165 ming 147 kvadrat metr hudud obod qilinib, ko'p qavatli uylar atrofi to'liq tartibga keltirildi. Sanitariya va ekologik holat yaxshilanib, aholi uchun toza, ozoda va shinam muhit yaratildi. Bu o'zgarishlar bayram arafasida xalqimizga yanada ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Fuqarolarning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlash maqsadida massivdagi 3,5 kilometr ichki yo'l beton va asfalt qoplamasi bilan ta'mirlandi. Bu piyodalar va avtotransport vositalari uchun yanada qulay sharoit yaratib, mahallaning kundalik hayotini yengillashtirdi. Massivdagi 37 ta ko'p qavatli turar joyning tashqi fasadi to'liq yangilandi. Zamonaviy me'moriy va estetik talablar asosida bajarilgan ishlar natijasida binolarning ko'rinishi tubdan o'zgarib, mahalla yanada ko'r'kam va fayzli maskanga aylandi. Obodonlashtirish ishlari doirasida 15 ming 514 kvadrat metr maydonda yangi yashil hududlar barpo etildi. Bu nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki aholiga dam olish va mazmunli hordiq chiqarish uchun yanada qulay sharoit yaratdi.

Yosh avlod uchun yaratilayotgan sharoitlarga ham alohida e'tibor qaratildi. Massivdagi 42 ta bolalar maydonchasi qayta ta'mirlanib, zamonaviy talablar asosida jihozlandi. Endi bolajonlar xavfsiz va shinam muhitda vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. Mahallada tashkil etilgan mutolaa maskani esa kitobsevar yoshlarning doimiy manziliga aylangan.

Darhaqiqat, bugun Surxondaryo mahallalaridagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari inson qadriini ulug'lashga qaratilgan islohotlarning hayotiy samarasini yaqqol namoyon etmoqda. Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida yurtdoshlarimiz yuzidagi mamnuniyat, qalbidagi shukronalik va ertangi kunga ishonch esa ana shu ezigu sa'y-harakatlarning eng muhim natijasidir.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi “Oqqo'rg'on” mahalla fuqarolar yig'ini hududi anjirli qishloq deya ta'riflanadi. Bu bejiz emas, albatta. Aholi asrlar davomida anjir yetishtirish bilan mashg'ul. Ayni kunda hosil yig'im-terimi avj pallada.

Aytishlaricha, mahallaga mehmon bo'lib kelganlarni anjirzor bo'ylab sayr qildirish urfga aylangan. Chunki oltindek tovlangan mevalarning ta'mi, ifori kayfiyatini ko'taradi. Charchoqni unutishga yordam beradi. Anjir nafaqat mo'may daromad manbai, balki to'yimlili, mazasi, quvvat beradigan vitaminlarga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Mahallaning usta mirishkorlari ko'p. Ulardan biri Xoldorali Tojiyev anjirchi bog'bonlar sulolasidan. Esini tanibdik, tomorqasida anjir yetishtirib, ro'zg'or tebratadi. Ayni kunda 30 sotixda anjir parvarishlanmoqda. Mevaning bozori chaqogon. Hozir pishiqchilik mavsumi bo'lgani uchun bir kilo anjimi o'rta hisobda 15-20 ming so'mdan sotyapti.

Bog' oralar ekanimiz, quyosh nurida toblangan, “yuziga bo'l” qo'ngan mevalarga havas bilan boqamiz. Tarvaqaylab o'sgan daraxtdan mevalarni terib olish qiyindek ko'rinadi. Ammo ishinung ustasi bo'lgan bog'bonlarga bu qiyinchilik tug'dirayotgani yo'q. Qo'l yetmas shoxlardagi mevalarni terib olish uchun maxsus ilgaklardan foydalanilyapti.

— Hosil terib olinishning ham o'ziga xos sir-sinoati bor, — deydi Xoldorali Tojiyev. — Anjir mevasi bir vaqtda pishmaydi. Shuning uchun ularni kun oralatib, saralab terib olish kerak. Mavsum kun oydan ko'p davom etadi. Uning quritilgani ham pul. Har yili anjirzordan 40-50 million so'm daromad olamiz. Uy-joy, farzandlar

ANJIRLI QISHLOQNING ZAMONAVIY TAROVATI

ta'lim-tarbiyasi, to'y-to'y'chiq ana shu mehnat va izlanishlarimiz samarasi. Anjir ko'p e'tibor talab qiladi. Qishda uni tuproq ostida saqlaymiz. Bahorda yer yuziga ko'tarib, shakl beramiz. Ana shu jarayon mavsumdagi muhim vazifa.

Bozorga olib borish uchun tayyorlangan qutilar ush anjir yaproqlari bilan berkitilgan. Aytishicha, bu usul mevalarni quyosh haroratidan asrab, xususiyatini yo'qotmay, uzoq vaqt saqlash imkoniyatini berar ekan.

— Anjirtez ko'payadi. Ko'chati ikki yilda hosilga kiradi, — deydi “Oqqo'rg'on” mahalla fuqarolar yig'ini raisi Azimjon Karimov. — Mahallamizdagi odamlarning jami 20 gektardan ziyod yerda anjirzori bor. Endi uni yanada kengaytirish, anjirli murab-bolar tayyorlash borasidagi ishlarni sanoatlashtirish yo'nalishida yangi loyihalarga e'tibor beryapmiz. Shuningdek, ishsiz, mehnat migratsiyasidan qaytgan va ijtimoiy dafarga kiritilgan 50 dan ortiq fuqaroga imtiyozli tarzda 7 gektardan ziyod ekin maydoni berildi. Bu yerda an'anaviy ekin turlaridan tashqari, ko'p martalik sabzavotlar yetishtirilyapti. Bularga qo'shimcha ravishda sanoat, xizmat ko'rsatish loyihalari hisobiga mahallamiz ishsizlikdan xoli hududga aylandi.

Keyingi yillarda tomorqachilikdan tashqari chorvachilik, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, metalni qayta ishlash yo'nalishida yangi tashabbuslar quloq yozdi. Tadbirkor Azizbek Mashrapov asos solgan “Aziz metall buyumlari” MCHJda yuk mashinalari uchun turli o'lcham va ko'rinishdagi kuzovlar tayyorlash, metallarga ishlov berish xizmati yo'lga qo'yildi.

— Mazkur yo'nalishda Buvayda tumandagi 2-texnikum bilan dual ta'lim shaklida ishlayapmiz, — deydi tadbirkor, — Texnikumning chilangar-payvandchilik yo'nalishida tahsil olayotgan 40 dan ortiq yosh dual ta'lim asosida o'qib,



ishlash imkoniyatiga ega. Yaqinda ular bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun kerakli dronlar tayyorlashni yo'lga qo'ydik. Mahsulotlarimiz tejamkor, boshqarishga qulayligi bilan mutaxassislar e'tiborini tortdi. Avtomashina qurilmani belgilangan joyga olib boradi. Mashina dronni quvvatlaydi, kimyoviy aralashmalar tayyorlab beradi. Umuman jarayon bir joyda to'liq bajariladi. Bu uchar qurilma ish sur'atini oshiradi, ortiqcha xarajatning oldini oladi. Hozir loyihamizni yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish tarmog'i uchun qo'shimcha jihoz va uskunarlar olib kelish borasida ishlayapmiz. Yangi loyiha yana o'nlab yoshlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Hududdagi yana bir tadbirkor Ma'murjon Toshmatov sut va go'sht yetishtirish yo'nalishida chorvalik tarmog'ini yo'lga qo'ygan. U 100 bosh qoramol boqishga moslashgan fermasini qurib bitkazdi. Yangi tarmoq aholi dasturxoniga sut va go'sht mahsulotlarini yetkazib berish, chorva nasldorligini oshirishda yangi imkoniyatlarga yo'l ochdi.

Oqqo'rg'on qishlog'i tumandagi eng gavjum hududlardan. Bir necha qishloq va qo'shni tumanlarni bog'laydigan yo'llar mahalla hududidan o'tgan. Joriy yil mazkur mahallaga “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berildi. Yangi loyiha qishloq me'moriy qiyofasi, odamlar hayot tarziga yangicha ruh,

ko'tarinkilik olib kirmoqda. Bu yerda bo'lgan kishi tashabbus doirasidagi keng ko'lamli bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari g'uvoh bo'ladi. Yillar davomida aholi va transport harakatlanishiga xalal berib kelgan, qo'lbola savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari o'rmda zamonaviy me'moriy yechimlarga ega bino va inshootlar qurilyapti.

— Mahallamizda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish orqali kundalik hayot tarzi uchun kerakli shart-sharoit yaratilmoqda, — deydi hokim yordamchisi Javlonbek Imomov. — Asosiy e'tibor kichik ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, savdo va xizmat ko'rsatishni oshirish, turizm, tomorqachilik, chorvachilikni rivojlantirish, qayta ishlash tarmoqlarini qurishga

qaratilyapti. Shu kunga qadar bu yo'nalishlar uchun 200 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit berildi.

Loyihaga ko'ra, yo'llar asfaltlanadi, piyodalar yo'laklari qurilib, markaziy ko'cha chetiga o'rindiqlar, temir to'stiqlar o'rnatiladi. Yashil maydonlar tashkil etilib, ariqlarga beton lotok yotqiziladi. Ayni kunlarda loyiha doirasidagi ishlar boshlangan. Energiya iste'moli yuqori bo'lgan uy-joy, ijtimoiy soha obyektlariga energiya tejavchi muqobil qurilmalar o'rnatilyapti. Aholining toza ichimlik suvga talabi yuqori. O'tgan asrning oltinchi yillarida qazilgan quduq hozirgi talab va ehtiyojga javob bermaydi. Oqibatda aholining aksariyati ichimlik suv ta'minoti borasida muammoga duch kelgandi. “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” dasturi doirasida yangi suv qudug'i qazilib, 500 dan ortiq xonadonni toza ichimlik suv bilan ta'minlash borasidagi eski muammolarga barham berildi.

— Avval chekka qishloqda zamonaviy yo'l va yo'laklar, dam olish maskanlari, ishlab chiqarish korxonalari quriladi desa, hech kim ishonmagan. Bugun bu haqiqatga aylandi, — deydi tadbirkor Jamoldin Ummataliyev. — Bu hayotbaxsh loyihalarda bevosita ishtirok etib, oz bo'lsa-da, yurtdoshlarimga nafim tegayotganidan mamnunman. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatib kelamiz. “Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla” dasturi doirasida qo'shimcha loyiha, xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirib, ana o'nlab ish o'rinlari ochishga bel bog'laganmiz. Ayni maqsad uchun bir milliard so'mga yaqin sarmoya kiritishni ko'zlab turibmiz.

Boshlangan hayotbaxsh islohotlar mahalla har jihatdan obod bo'lib, fayzli maskanga aylanib borayotganidan darak bermoqda. Bu oddiy, samimiy, dilkash odamlar kundalik hayot tarzi va ishlarida yanada aniq ko'rinnmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.



SHHT DOIRASIDA YANGI O'ZBEKISTON MADANIY DIPLOMATIYASI

Yaqin kunlarda Qirg'iz Respublikasi poytaxtida VI Butunjahon ko'chmanchilar o'yinlarining ochilish marosimi, Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammiti hamda "SHHT +" uchrashuvi bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari SHHT sammitlarida doim tashkilotning ochiq va blokdan xoli maqomini saqlash, yaxshi qo'shinchilik, ishonch va transchegaraviy muammolarni diplomatik yo'l orqali hal etish, xavfsizlik tahdidlariga qarshi universal markazni tashkil etish kabi siyosiy-diplomatik takliflarni ilgari surib kelmog'da. Shu bilan birga, madaniy-gumanitar yo'nalishda ilgari surgan SHHT madaniy almashinuvlar taqvimini ishlab chiqish, Madaniyatlararo muloqot forumi, xalq ijodiyoti xalqaro festivallari hamda tibbiyot turizmi alyansini shakllantirish kabi taklif va tashabbuslari alohida ahamiyatga molik. Binobarin, ushbu tashabbuslar tashkilot makonida tinchlik, barqaror taraqqiyot, xalqlar do'stligi va o'zaro hurmat muhitini yanada mustahkamlab, yangi O'zbekistonning xalqaro nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi murakkab va tez o'zgarayotgan dunyoda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, balki xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va madaniy yaqinlik asosida ham rivojlanmoqda. Turli sivilizatsiyalar va madaniyatlarni birlashtirgan xalqaro tashkilotlar doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning ahamiyati tobora ortib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Shanxay hamkorlik tashkiloti makonida madaniy diplomatiyaning yangicha mazmun va ahamiyat kasb etayotgani diqqatga sazovor. Bugun SHHT nafaqat siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalari muhokama qilinadigan ko'p tomonlama maydon, balki turli xalqlar, tillar, dinlar va sivilizatsiyalar o'rtasida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega makon sifatida ham namoyon bo'lmoqda.



Tashkilotga a'zo davlatlarda uch milliarddan ortiq odam istiqomat qiladi. Ana shu keng makonda yangi O'zbekistonning ko'p tomonlama madaniy diplomatiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiqlik, o'zaro ishonch, yaxshi qo'shinchilik va konstruktiv muloqot tamoyillari asosida izchil rivojlanishi madaniy-gumanitar sohada ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda. O'zbekiston madaniyatini nafaqat milliy merosni namoyish etish vositasi, balki davlatlar va xalqlar o'rtasida ishonchini mustahkamlash, o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish va tinchlikparvar muloqotni rivojlantirishning samarali diplomatik vositasi rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlarga ega makon sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Bu yondashuv, avvalo, mamlakatimizning tarixiy va madaniy salohiyati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston asrlar davomida Sharq va G'arb, turli sivilizatsiyalar va xalqlarni bog'lab turgan madaniy makon sifatida shakllangan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq tarixiy meros, buyuk allomalar va mutafakkirlar qoldirgan ilmiy-ma'naviy xazina, maqom va baxshichilik san'ati, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at an'analari O'zbekistonning madaniy diplomatiya sohasidagi ulkan salohiyatini belgilab beradi.

Yangi O'zbekiston bu salohiyatni zamonaviy tashqi siyosatning muhim resursi sifatida samarali ishga solmoqda. Ayniqsa, tuzilma doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikda mamlakatimizning tashabbuskorligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston tomoni tashkilot doirasida madaniy almashinuvlarni tizimli tashkil etish maqsadida har yili SHHT madaniy almashinuvlar taqvimini tasdiqlash tashabbusini ilgari surdi. Mazkur taklif mamlakatimizning madaniy hamkorlikni alohida tadbirlar majmui sifatida emas, balki izchil, tizimli va uzoq muddatli jarayon sifatida ko'rayotganini anglatadi.

2024-yil 12-iyul kuni Belarus Respublikasining Vitebsk shahrida "Slavyanskiy bazar — Vitebsk" xalqaro san'at festivali doirasida SHHTga a'zo

Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq tarixiy meros, buyuk allomalar va mutafakkirlar qoldirgan ilmiy-ma'naviy xazina, maqom va baxshichilik san'ati, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at an'analari O'zbekistonning madaniy diplomatiya sohasidagi ulkan salohiyatini belgilab beradi.



Yuksalish pallas

TA'LIMDA DEMOKRATIK BOSHQARUV MODEL

Ilk tajriba va real natijalar

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksak bo'lmagan jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish mushkul. Mamlakatimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni yuridik ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'ldi. Bu orqali huquqiy ta'lim, ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yildi.

Shuningdek, farmon ijrosi doirasida ilk bor yuridik ta'limda demokratik boshqaruv tamoyillari joriy etilib, universitet rahbar organlarini saylash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Yuridik universitetlarda dekan va boshqa rahbarlar saylanadigan, professor-o'qituvchilar qarorlarni qabul qilish jarayonida kengash orqali bevosita ishtirok etadigan tizim o'rnatildi.

Endi muhim qarorlar bir kishining yoki ayrim shaxslarning irodasi bilan emas, balki jamoaviy muhokama asosida qabul qilinmoqda. Butun akademik jamoa umumiy maqsad yo'lida birgalikda qaror chiqaradigan tizimga aylangan, professor-o'qituvchilar universitet hayotiga daxldor masalalarda o'z so'zini aytish, g'oya va takliflarini ilgari surish imkoniga ega bo'lyapti. Boshqacha aytganda, bu universitet yagona oilasi bamaslahat qaror qabul qilishga o'tdi degani.

Yuridik ta'limda demokratik boshqaruv tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun universitetda muhim institusional yangilik — Universitet professorlar kengashi instituti joriy etilgani ham muhim yangilik. Mazkur kengash kamida 9 nafar tajribali professor-o'qituvchidan iborat bo'lgan tarkibda shakllantiriladi. Kengash a'zolari 5 yil muddatga saylanadi va bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emas. Mazkur tartib kengash faoliyatida izchillik bilan bir qatorda yangilanish va ochiqlik tamoyillarini ta'minlaydi.

Professorlar kengashi universitet hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan qator strategik vakolatlarga ega. Xususan, universitetning uzoq va o'rta muddatli rivojlanish strategiyalarini tasdiqlash, xalqaro reytinglarda munosib o'rinni egallashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni belgilash, huquq sohasidagi dolzarb ilmiy tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash ana shu kengash zimmasiga yuklatildi. Shuningdek, akademik halollik va ilmiy etika standartlarini belgilash, doimiy va vaqtinchalik qo'mitalar tashkil etish orqali murakkab masalalarni chuqur muhokama qilish imkoniyati yaratildi.

Bu vakolatlardan, avvalo, universitet boshqaruvida intellektual salohiyatga tayyanish tamoyiliga sodiqligini yana bir bor tasdiqlamoqda. Chunki kengash ko'p yillik ilmiy va pedagogik tajribaga ega, sohani chuqur biladigan mutaxassislardan shakllantiriladi. Gapning indallosini aytganda, professorlar kengashi universitetning o'ziga xos "parlament". U oliyohig rivojini jamoaviy aql, erkin fikr va ilg'or tajribaga tayanadigan boshqaruv modeliga olib chiqadi. Bunday yondashuv nafaqat professor-o'qituvchilarning faolligini oshiradi, balki ta'lim sifati, ilmiy

natijalar va talabalar tayyorgarligiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Joriy yil milliy ta'lim tizimida ilk bor bunday ko'lamda tashkil etilgan saylov jarayonlari ochiqlik, oshkorlik va adolat tamoyillari asosida o'tkazildi. Bu holat saylovlarning faqat natijasi emas, balki uni o'tkazish madaniyati ham muhim ekanini namoyon etdi. Saylov jarayonlarining ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy yoritib borilgani jamoatchilik ishonchini mustahkamladi. Barcha bosqichlar haqida ochiq axborot berilishi, muhokamalar va qarorlarning shaffof tarzda qabul qilinishi universitet hayotida ochiq boshqaruv muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Saylov komissiyasi rahbariyatining jamoaviy qaror orqali saylangani esa akademik jamoada o'zaro ishonch, mas'uliyat va hamjihatlikni kuchaytirdi.



Ochig'ini aytganda, ushbu saylovlar universitet jamoasi uchun o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tadi. Nomzodlar saylovchilari ishonchini qozonish uchun zamonaviy tashviqot va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalandi. Ayniqsa, raqamli makondagi axborot platformalaridan samarali foydalanilishi, ochiq saylov debatlarining tashkil etilgani, nomzodlarning saylovoldi dasturlari saylovchilar uchun qulay va ochiq maydonlarda taqdim qilingani saylov jarayonlarining mazmun-mohiyatini boyitdi.



Ixtiyor BEKOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Saylovlar vakillik demokratiyasi qoidalariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkazildi. Akademik shu'balar va tadqiqot markazlari vakillari yashirin ovoz berish orqali professorlar kengashi tarkibini shakllantirdi.

Quvonarlisi, nomzodlarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Shuningdek, ularning 18 foizi 30 yoshga to'lmagan yosh olimlar, yana 18 foizi esa 40 yoshgacha bo'lgan ilmiy kadrlardan iborat bo'ldi. Ayniqsa, nomzodlarning 27 foizi dunyoning nufuzli TOP-300 reytinglariga kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan fan doktorlari ekani alohida e'tiborga loyiq. Umuman olganda, saylov natijalari yuridik ta'limda demokratik boshqaruvning mazmunan teranlashib borayotganini va universitet strategik qarorlarida akademik jamoa ovozi hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini yaqqol namoyon etdi.

Yuridik ta'lim tizimida boshqaruvning akademik-kollegial modelini kuchaytirishga qaratilgan yana bir muhim yangilik — Toshkent davlat yuridik universiteti fakultet dekanlari va ularning o'rinsosarlari (akademik departament boshliqlari va tadqiqot markazlari rahbarlari) saylash amaliyoti joriy etildi. Bu, shubhasiz, OTMLar boshqaruvida demokratik tamoyillarni institusional darajada mustahkamlash yo'lidagi yana bir muhim bosqichdir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fakultet dekanlari va ularning o'rinsosarlari saylash bo'yicha ilk saylovlar oshkorlik, muqobillik va teng saylov huquqi prinsiplari asosida o'tdi. Nomzodlar o'z dasturlari bilan chiqish qildilar, ovoz berish yashirin tarzda o'tkazildi hamda kuzatuvchilar ishtiroki ta'minlandi. Shuningdek, saylov jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. Bu esa saylovlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qildi.

Saylovchilarning tarkibi ham demokratik ishtirok tamoyiliga mos ravishda kengaytirilgan deyish mumkin. Boisi ovoz berishda universitetda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilar va tadqiqot markazlarining to'liq tarkibi, tayanch doktorantlar vakillari, shuningdek, talabalar assotsiatsiyasi tomonidan ko'rsatilgan talabalar vakillari qatnashdi.

Albatta, har qanday yangilikni amaliyotga joriy etishning dastlabki bosqichida "Buni uddalay olamizmi?" degan hadik va mas'uliyat hissi bo'ladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida bunday demokratik boshqaruv mexanizmlarini joriy etishdek katta va dolzarb vazifaning ilk bor Toshkent davlat yuridik universitetiga ishonib topshirilgani zimmamizga yuksak mas'uliyat yuklagani rost.

Zero, Toshkent davlat yuridik universiteti o'zining boy ilmiy salohiyati, malakali professor-o'qituvchilari, huquqiy tafakkur va akademik madaniyati bilan bu borada ko'p yillik tajribaga ega. Ana shu salohiyat, jamoaviy mas'uliyat va yangilikka ochiqlik tufayli universitet bu murakkab vazifani katta mas'uliyat, yuksak mahorat va puxta yondashuv asosida amalga oshirdi. Bugun esa bu jarayon yuridik ta'limda demokratik boshqaruvning amalda ishlaydigan modeli sifatida o'zining dastlabki samalarini namoyon etmoqda.



Boqiy meros

Folklor — millat tomlirlarida oqayotgan tarix, ruhi va dunyoqarashining koʻzgusidir. U shunchaki oʻtmishdan sado beruvchi eski xotiralar emas, bugungi kunimizni mazmunan boyitib, kelajagimizga yoʻl koʻrsatuvchi bebaho maʼnaviy xazina ham. Insoniyat oʻz orzu-umidlari, quvonchu tashvishlari, hayot falsafasi va ezigulikka boʻlgan ishonchini asrlar davomida xalq ogʻzaki ijodi namunalarida aks ettirib kelgan. Shu bois, dostonlarning sehlri satrlarida, allalarning mayin ohangida butun bir millatning yuragi urib turadi.

Shiddatli oʻzgarishlar va globallashev davrida milliy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda insonni inson qilib turuvchi asl fazilatlarini saqlab qolishda folklorning oʻmi beqiyos. Zero, oʻz ildizidan oziqlanmagan daraxt koʻkarmaganidek, tarixiy xotirasi va milliy merosidan uzilgan xalqning ham poydevori mustahkam boʻlmaydi. Bugungi kunda ushbu boy merosni nafaqat saqlab qolish, balki uning zamiridagi hikmatlarni zamonaviy hayotimizga uygʻunlashtirish har qachongidan-da dolzarb.

Biz ayni shu mavzularda — milliy merosimizning hayotimizdagi oʻmi, uning zamonaviy talqini, kelajak avlod tarbiyasidagi ahamiyati hamda oʻzbek folklorshunosligi oldida turgan muhim vazifalar xususida taniqli folklorshunos olim, professor Shomirza TURDIMOV bilan suhbatlashdik.

— Mamlakatimizda madaniyat va sanʼatni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan bugungi kunda folklorshunoslik sohasi oldida ham muhim vazifalar bor. Bilamiz, bu borada salmoqli loyihalar amalga oshirilmogda. Avvalo, shular haqida gaplshsak.

— Folklor yoʻnalishi faqat oʻtmishga tegishli meros emas, u bugungi jamiyatni maʼnaviy jihatdan mustahkamlaydigan, kelajakka yoʻl koʻrsatadigan muhim manba hamdir. Uni oʻrganish, asrash va zamonaviy shakllarda targʻib qilish esa nafaqat olimlar, shu bilan birga, butun jamiyat oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Zero, millat oʻz ildizlarini unutmasagina uning kelajagi mustahkam boʻladi.

Mazkur yoʻnalishda qabul qilingan qator farmon va qarorlar sohani tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 28-noyabrdaqi “Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorida folklor merosini asrash, oʻrganish va targʻib qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shu asosda hududlarda madaniyat markazlarining faoliyati kengaytirilib, baxshichilik, dostonchilik va xalq ijrochiligi anʼanalarini koʻllab-quvvatlash boʻyicha aniq dasturlar amalga oshirildi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarini hududma-hudud yurib, ekspeditsiyalar orqali aniq va mukammal holda yozib olish, yigʻilgan doston, ertak, oʻshiq va maqollarni zamonaviy ilmiy talablar asosida toʻplamlar holida nashr qilish, ularning tarixiy taraqqiyoti, poetikasi hamda gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini chuqur oʻrganish asosiy vazifalar qilib belgilandi. Anʼanaviy folklorning unutilib borayotgan koʻhna unsurlari va nodir ijro yoʻllarini qayta tiklash, shuningdek, ogʻzaki ijod arxivini elektron bazaga oʻtkazish orqali kelajak avlod va tadqiqotchilar uchun qulay sharoit yaratish shular jumlasidan.

Amaliy natijalarga nazar tashlasak, soʻnggi yillarda ilmiy-folklor ekspeditsiyalari orqali koʻplab xalq ogʻzaki ijodi namunalari yigʻildi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari hududlarida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida oʻnlab yangi dostonlar, qoʻshiqlar va rivoyatlar kitob, audio va video shakllarda nashr etildi.

Ularini xalqaro miqyosda targʻib etish borasida ham aniq qadamlar tashlandi. Jumladan, 2019-yilda Termiz shahrida oʻtkazilgan Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalida 70 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok

Baxshichilik bu — quruq soʻzlarni qofiya qilib, doʻmbira chertib kuylash emas. Shu jihatga jiddiy eʼtibor qaratish zarur. Unday ijrochilar baxshilik sanʼatining darajasini pasaytirib qoʻymoqda. Toʻgʻri, “sen falon narsani yaratma”, “piston narsani yaratma” yoki “sen bunday yaratyapsan”, deb ularni taʼqib qilish kerak emas. Lekin bu sanʼatning asl qadri va qimmatini bilib munosabatda boʻlish shartligini unutmaslik lozim.



eti. Shu festival orqali oʻzbek baxshichilik sanʼati jahon hamjamiyatiga keng namoyish qilinish, uning nufuzi yanada oshdi. Bu esa milliy merosimizni saqlash va kelajak avlodga yetkazishda mustahkam poydevor boʻlib xizmat qilmoqda. Zero, millat oʻz ildizlarini unutmasa, uning kelajagi ham mustahkam boʻladi.

— Baxshi-shoir Ergash Jumanbulbul avlodi vakili sifatida ilmiy faoliyatingizda “Goʻroʻgʻli” turkumidagi dostonlar alohida oʻrin tutadi. Ushbu asardagi obrazlar va syujetlar bugungi inson tafakkuri hamda maʼnaviy dunyosiga qanday taʼsir koʻrsatishi mumkin?

— Baxshilar yurtida tugʻilganman. Otam Ergash Jumanbulbulning nevarasi boʻlgan. Mening folklorshunos boʻlishim, shu yoʻlda oʻqib-oʻrganishim va ilmiy izlanishlar olib borishim tabiiy hol edi. Folklor har bir odamning qonida bor va har qanday tilning ibtidosida ulkan bilimlarga daxldor tushunchalar mavjud. Shunday ekan, folklor bizga oʻzimizni, oʻzligimizni anglashga yordam berishi bilan ham benihoya qimmatli.

Bu borada faxrlanishga haqli xalqimiz, chunki biz “Alpomish” va “Goʻroʻgʻli” kabi mumtoz eposlarning merosxoʻrimiz. Ustoz Hodi Zarifning “Haqiqatim xalq ichida”, degan iqrori bejiz emas. Aslida, saltanat tuzuvchi va uni yurituvchi Goʻroʻgʻlidek alplar bagʻrikenglik siyosatini olib borgan tolerant shaxslardir. Ular oʻzlari mansub boʻlgan “lokomotiv” millat atrofiga koʻplab el-elatlarni birlashtirib, ularning birdek kamol topishi uchun shart-sharoit yaratgan. Goʻroʻgʻlining buyukligi va suyuqligi shundaki, u kechirimli boʻlgan. Bu inson ichki olamining naqadar goʻzalligidan va yuksak maʼnaviyatidan darak beradi. “Alpomish” va “Goʻroʻgʻli” asarlari kishilarga hayotda ezigulik, fazilat va hikmat qidirib yashash eng oliy saodat ekanini, biroq bu saodat hammaga ham nasib etavermasligini anglatadi.

Aslida, ezigulik, yaxshilik fazilati qumdagi oltin zarrasiga oʻxshaydi. Zarrani qumdan ajratib olish uchun qanchalar zahmat kechish kerak. “Bu qum-ku” deb qoʻl siltab ketishdan osoni yoʻq. Komillik yoʻlidagi odam goʻyoki

oltin ajratuvchidir. Ushbu dostonlardagi obrazlar va syujetlar Vatan taqdiri, shaʼni va shavkati bilan nafas oluvchi er oʻgʻlonlar borligini, ular bor ekan, bu saltanat hech qachon zavol topmasligini anglatadi.

Asar qahramoni Goʻroʻgʻli ana shunday er oʻgʻlon edi. Uning oʻyi, soʻzi va amali bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan. Oʻylaganing hayotingga, aytganing va qilgan amaling esa taqdiringga aylanadi. Epos — xalqning badiiy taqdimomasi. Eposning sabogʻi juda koʻp. Uni oʻqib, uqib, oʻtmish, bugun va kelajakning mohiyatini tushunib borasiz.

“Goʻroʻgʻli” va “Alpomish” turkumidagi dostonlar xalq hayoti va turmushini, uning orzu-umidlari hamda yuksak maqsadlarini, maʼnaviy-estetik olamini keng miqyosda badiiy aks ettiruvchi asar sifatida bebaho meros sanaladi. Uni mutolaa qilgan sari insonning tafakkuri teranlashib, maʼnaviy olami tozarib boraveradi.

— Bugun raqamli platformalar folklorini keng auditoriyaga yetkazishda muhim vositaga aylanmogda. Sizning bu boradagi qarashlaringiz qanday? Oʻzbek folklorini xalqaro miqyosda targʻib qilish uchun qaysi yoʻnalishlarga ustuvor ahamiyat berish zarur deb oʻylaysiz?

— Toʻgʻri, bugungi kunda hamma narsa kompyuterlashtirilyapti, raqamlashtirilyapti. Lekin bu jarayon faqat kompyuterning vazifasi boʻlib qolishi kerak emas. Chunki kompyuter ham baribir sunʼiy intellekt. Folklor insonning kamolotiga xizmat qiladi, shu bois, uning asosida inson qalbi turishi kerak. Hazrat Rumiyning “Koʻngildan koʻngilga darcha bor” degan hikmatli soʻzi bejiz aytilmagan. Chindan ham koʻngildan koʻngilga yoʻl bekordan bekor ochilmaydi. Folklorning muhim jihati shuki, u butun adabiyotning, sanʼatning tili boʻlgan inson koʻnglidir. Yaʼni bu yerda bevosita koʻngil haqida gap ketyapti.

Masalan, ertaklar va har qanday mifologik asarlarni olib qaraydigan boʻlsak, barchasining asosida koʻngil turadi. Chunki soʻzning qadri shundaki, u shunchaki fikrni yetkazadigan vosita emas, avvalo, odamning koʻnglini ifoda etadigan vosita boʻlishi kerak. Aynan shu yerda folklorning oʻmi juda muhim.

Oʻzbek folklorini xalqaro miqyosda targʻib qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, akademik tarjimalar va xalqaro festivallarni tashkil etishga ustuvor ahamiyat berish zarur. Bu jarayonda zamonaviy media imkoniyatlari va ilmiy hamkorlik hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Raqamlashtirish jarayonlari esa sohaning yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qilsin. Bugungi kunda ilmiy muassasalar va arxivlarda saqlanayotgan koʻlyozma, audio va videomateriallar bosqichma-bosqich elektron formatga oʻtkazilib, maʼlumotlar bazalari



yaratilmogda. Buning natijasida minglab manbalar tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun ochiq boʻlib bormogda.

— Folklorini zamonaviy platformalar formatiga solib taqdim etish asarning mazmun-mohiyati va badiiy qimmatiga taʼsir qilmaydimi?

— Folklorning folklorligi shundaki, u faqat bir zamon bilan bogʻlanib qolmagan. Masalan, “Alpomish” yoki “Goʻroʻgʻli”ni olaylik. Ularda kuylangan holatlar oʻtgan asrlarga taalluqli boʻlishi mumkin. Lekin asrdan asrga, odamdan odamga oʻtadigan bir ruh bor. Insonni inson qilib turadigan fazilatlarining barchasi oʻsha mohiyatda mujassam. Yana bir muhim jihati shundaki, unda odamning odamiyligi kuylanadi va u aynan shunisi bilan ajralib turadi, shunisi bilan ahamiyatli. Shuning uchun ham folklor hech qachon qarimaydi, eskirmaydi, yoʻqolmaydi. Uning qonun-qoidalari oʻzgarmaydi, oʻlchamlari esa bilimga bogʻlanadi. Asarlarning ayni mohiyati ham shunda.

Agar zamonaviy platformalar folklorning aynan oʻzini oʻzlashtirib olsa va u oʻsha oʻzanda oqsa, hech qachon adashmaydi. Ammo “uni yangilayman, oʻzgartirish kiritaman”, desa, albatta, bu sohaning asl mohiyati oʻzgarib ketadi. Shuning uchun ham zamonaviy platformalar folklorning mohiyatiga, ildiziga, asliga oʻzgartirish kiritmasligi va unga tegmasligi kerak.

— Bugungi kunda baxshichilik sohasida kuzatilayotgan oʻzgarishlar haqida nima deya olasiz? Anʼana va zamonaviylik oʻrtasidagi muvozanatni saqlashning qanday samarali yoʻllari bor?

— Oʻzbek milliy baxshichilik va dostonchilik sanʼatining noyob namunalarini asrash, rivojlantirish, targʻib qilish, yoshlar qalbidagi ushbu sanʼat turiga nisbatan hurmat va eʼtibor tuygʻularini kuchaytirish, xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, madaniy-maʼnaviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida 2019-yildan buyon Xalqaro baxshichilik sanʼati festivali oʻtkazilib kelinmogda.

Festival ilk marotaba 2019-yilda Surxondaryo viloyatida, 2021-yilda Qoraqalpogʻiston Respublikasida, 2023-yilda Sirdaryo viloyatida, 2025-yilda esa Xorazmning Xiva shahrida oʻtkazildi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bu borada muhim hujjat boʻldi. Ushbu noyob sanʼat turini asrab-avaylash va rivojlantirish boʻyicha yurtimizda muayyan ishlar amalga oshirilmogda.

Bu borada “Alpomish” dostonining ming yilligi keng nishonlanganini, Samarqand

shahrida atqoli baxshilarimiz xotirasiga bagʻishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilganini, davlatimiz tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni taʼsis qilinganini alohida qayd etib oʻtish lozim.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda baxshichilik sohasiga berilayotgan eʼtibor tufayli bu sanʼat turi yanada yuksaldi. Baxshichilik boʻyicha turli festival va tanlovlar tashkil qilindi va ularda yosh yigirlar, hattoki qizlar ham doʻmbira chertib, doston va termalarni baralla kuylamogda. Albatta, mamlakatimizda milliylikni teran anglash va yoshlarda milliy qadriyatlar bilan faxrlanish tuygʻularini mustahkamlash gʻoyasining ilgari surilayotgani tahsiga sazovor.

Aytish mumkinki, bu yangilanishlarning yaxshi tomonlari bilan birga ayni paytda sohaga boshqacha koʻz bilan qaraydigan odamlar ham paydo boʻlib qoldi. Baxshichilik xalq sanʼati boʻlsa-da, u aslo joʻn emas. Sodda boʻlishi mumkin, lekin hech qachon joʻn boʻlmaydi. Bugun baʼzi bir baxshilarning yaratayotgan termalarini yozma ravishda oʻqib koʻrsangiz, ularning aksariyat qismi badiiy jihatdan juda boʻsh ekanini koʻrishingiz mumkin.

Baxshichilik bu — quruq soʻzlarni qofiya qilib, doʻmbira chertib kuylash emas. Shu jihatga jiddiy eʼtibor qaratish zarur. Unday ijrochilar baxshilik sanʼatining darajasini pasaytirib qoʻymoqda. Toʻgʻri, “sen falon narsani yaratma”, “piston narsani yaratma” yoki “sen bunday yaratyapsan”, deb ularni taʼqib qilish kerak emas. Lekin bu sanʼatning asl qadri va qimmatini bilib munosabatda boʻlish shartligini unutmaslik lozim. Shuning uchun men bu sanʼat turini suisteʼmol qilishlariga qarshiman. Chunki oʻzim shu sohaning necha yillik fidoyisi va izlanuvchisiman.

— Xalqaro maydonda oʻzbek folklorini keng targʻib qilish uchun qaysi yoʻnalishlarga koʻproq eʼtibor qaratish lozim deb oʻylaysiz?

— Oʻzbek folklorini xalqaro miqyosda targʻib qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, akademik tarjimalarni koʻpaytirish, xalqaro festival va media loyihalarini yanada rivojlantirishga ahamiyat berish ayni mudda. Bunda zamonaviy yondashuv va milliy anʼanalarning uygʻunlashishi muhim rol oʻynaydi. Video va animatsiyalar yaratish orqali doston va ertaklarni chet tillarda taqdim etish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarda maxsus kontentlar tarqatish kerak.

Shuningdek, virtual muzeylar, interaktiv portallarni tashkil etish, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini yuqori saviyada boshqa tillarga tarjima qilish hamda ilmiy izohlar va lugʻatlar bilan chert ellik tadqiqotchilar uchun kitoblar chop etish zarur. Xalqaro miqyosda keng

targʻib qilish maqsadida “Oʻzbek xalq ijodi yodgorliklari”ning 100 jildlik kitobi nashri yoʻlga qoʻyildi. Hozirga qadar uning oltmish jildini nashrdan chiqardik va bu ishlar tizimli ravishda davom etmogda.

Xudo xohlasa, 2030-yilgacha yuz jildlik kitoblarni nashr etish yakuniga yetadi. Bu shuni anglatadiki, bizning folklorimizda saqlanayotgan oʻzbek xalq ijodi, xalq dostonlari, ertaklari, qoʻshiqlari, afsona-rivoyatlari asosiy boylik sifatida chop etiladi va nazmning eng mumtoz namunalari xalqqa yetkaziladi. Aslida, bu reja oʻzbek folklorshunosligi asoschilaridan Hodi Zarifning, shuningdek, akademiklar Aziz Qayumov, Toʻra Mirzayev kabi butun folklorshunoslarimizning orzusi edi. Bungacha 37 tomlik “Oʻzbek xalq ijodi” saralangan namunalari chop etilgandi, lekin ushbu 100 jildlik toʻplam xalqimizning boy xazinasini butun jahonga tanitish loyihasi hisoblanadi.

Tasavvur qiling, har biri qir-qellik bosma taboqdan iborat boʻlgan jildlar tizilib turibdi. Ular faqat koʻrar koʻzni quvnatishi emas, balki dunyodagi har bir oʻquvchining sevimli kitobiga aylanishi kerak. Biz bu tomliklarni nafaqat Oʻzbekistonda, balki butun dunyoda mashhur qilishimiz lozim. Buning uchun ularni turli tillarga tarjima qilish, targʻib etish va oʻquvchilarga yetkazib berish kerak.

Agar targʻibot va tashviqot ishlarini samarali olib bormasak, ularni oʻzimizdan boshqa hech kim bilmaydi. Bu faqat kitoblarni tarjima qilishdangina iborat emas. Ularni qaytadan, yangi koʻrinishdagi filmlar sifatida ham ishlash kerak. Bu esa bizning folklorimizda saqlanayotgan oʻzbek xalq ijodi, xalq dostonlari, ertaklari, qoʻshiqlari, afsona va rivoyatlarimizning asosiy boylik sifatida chop etilishini hamda nazmimizning eng mumtoz namunalari xalqqa yetkazilishini bildiradi.

— Shu oʻrinda sohada eʼtibor talab qiladigan jihatlar haqida ham toʻxtalib oʻtsangiz?

— Bilasizmi, aslida, yutugʻimiz ham, kamchilgimiz ham oʻzimizniki. Yutuqlarimizdan xursand boʻlsak, kamchiliklarimizdan afsus chekamiz. Folklor sohasida ham ilmiy tadqiqotlarni tizimli olib borish, asarlarni toʻplash, nashr etish va targʻib qilishda ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolmogda. Xususan, malakali mutaxassislarining yetishmasligi, zamonaviy arxiv bazalarining toʻliq emasligi soha rivojiga birmuncha toʻsqinlik qilmogda.

Baʼzan nodir doston va xalq qoʻshiqlarini kitob holida chiqarish ishlari sekin bormogda, folklorshunos olimlar va yosh kadrlar yetarli emas. Qoʻlyozmalar va audio arxivlarni yagona elektron bazaga oʻtkazish ishlari ham toʻliq yakunlanmagan.

Shu oʻrinda mutaxassis sifatida gazeta sahifalari orqali yana bir gapni aytishni joiz deb bildim: yoshlar orasida xalq ogʻzaki ijodini keng targʻib qilish dasturlarini yanada kuchaytirish lozim. Chunki kelajak avlodning oʻzligini butun olamga namoyon etishda unga quvvat beruvchi asosiy manbalardan biri — xalq ijodi va folklorning kuchidir. Folklor xalqqa nafaqat maʼnaviy quvvat beradi, balki uning jismonan qayta tiklanishiga ham asos boʻluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Inson imkoniyatida yaratuvchanlik kuchi pinhon turadi, bu zaxirani xalqning allasidagi ohang, ertag-u dostonlaridagi bilim, oʻyin-u raqslaridagi harakat uygʻotadi. Xalq hech qachon toshdek qotib qolmaydi. Oqqan qadaryo yana oʻzanini yangilab, qayta oqaveradi. Folklor aynan shu kuchni harakatga keltiruvchi manba hisoblanadi. Har bir kishi oʻzligini anglashi, qadriyatlarini qadrlashi uchun ham folklor janrlari haqida tushuncha va bilimga ega boʻlishi shart deb oʻylayman.

— Samimiy suhbat uchun tashakkur!

“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri Gulichehra DURDIYEVA suhbatlashdi.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MOUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.